

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI TIZIMI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI

Karimov Jaloliddin Abulato o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: hozirgi o'qiyotgan maqolangizda muallif mahalliy davlat hokimiyati organlari davlat boshqaruv faoliyatida tutgan o'rni, uning tashkiliy-huquqiy asoslari, funktsiya va vazifalari, so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar haqida nazariy va amaliy tahlillarga asoslangan holda muhokama qilingan. Shuningdek, mahalliy davlat hokimiyat organlarini faoliyatini yanada takomillashtirish borasida taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: davlat organi, byurokratiya, legitimlik, globallashuv, samaradorlik, nomarkazlashtirish, saylov, model, munitsipal, demokratiya.

Аннотация: В представленной статье автор рассматривает роль органов местной государственной власти в системе государственного управления, их организационно правовые основы, функции и задачи. Также анализируются проведённые в последние годы реформы на основе теоретических и практических исследований. Кроме того, в статье предложены рекомендации и предложения по дальнейшему совершенствованию деятельности органов местной государственной власти.

Ключевые слова: государственный орган, бюрократия, легитимность, глобализация, эффективность, децентрализация, выборы, модель, муниципальный, демократия.

Abstract: In the presented article, the author examines the role of local government bodies in the system of public administration, their organizational and legal foundations, functions, and tasks. The reforms carried out in recent years are also analyzed based on theoretical and practical research. In addition, the article provides recommendations and proposals for further improving the activities of local government bodies.

Keywords: state body, bureaucracy, legitimacy, globalization, efficiency, decentralization, elections, model, municipal, democracy.

So'nggi yillarda davlatimiz rahbarining kuchli irodalari bilan nafaqat ichki, balki tashqi siyosatda juda katta islohotlar amalga oshirilmogda. Ma'muriy islohotlar natijasida boshqaruvni optimallashtirish, qaytaruvchi funksiyalarni yo'q qilish, fuqarolarga yengilliklar yaratish, byurokratik rasmiyatchilikni kamaytirish, fuqarolarga imkon qadar qiyinchilik tug'dirmaslik, ma'muriy organlar faoliyatini doimiy nazorat qilib borish kabi boshqaruvda qilingan ishlarni bemaolol kuchli iroda va globallashuv davrida taqsinga

sazovor deb aytsak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar natijasida mahalliy boshqaruvga nisbatan fuqarolarning legitimlik darajasi kundan kunga yuqorilab borilmoqda. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligini ta'minlash, markazda hamda joylarda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, davlat va hududiy dasturlarini ishlab chiqishda jamoatchilik ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslari shakllantirildi. Ijro hokimiyatining vakillik organlari oldida hisobdorligi tamoyili Konstitutsiya hamda qonunlarda mustahkamlab qo'yildi. Biroq ba'zi mahalliy ijro etuvchi organ vakillari qonuniy vakolatlari doirasidan chiqish holatlari ham ko'p uchraydigan holatlardan biri qolmoqda¹. Ayni shu masalada to'xtalar ekan davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev hali Konstitutsiya islohotlar boshlanmasdanoq 2021-yil 18-iyun Andijon viloyati faollari bilan uchrashuvda kelajakda hokimlarning saylanishiga to'xtalib o'tib, shunday degan edi:

“Biz joylardagi muammolarni hal qilish bo'yicha deputatlar, tuman kengashlariga juda katta vakolatlar berganmiz. Shunday tizimga o'tamizki, har bir kengash rahbari hokim bo'lmaydi. Kengashga saylangan deputat unga rahbar bo'ladi. Viloyat hokimi ham viloyat kengashining rahbari bo'lmaydi. Ijro organi rahbari — tuman, shahar kengashlariga hisobot beruvchi. Davlat rahbari har bir viloyat, tuman va shaharda vazirlik va respublika idoralarining vakillari borligini, lekin ular haligacha quyi pog'onaga hisobot berishni o'rganmaganligi ta'kidladi. «Bizning ijro organimizdagi eng katta kamchilik shu. Bu organlar vakillari yuqori tashkilotiga suyanib o'z bilganicha ishlab yuribdi. Bu zamon tugagan»², — dedi u.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz³ga muvofiq endilikda hokim mahalliy xalq deputatlar kengashi rahbari bo'lmasligi, u faqat ijro hokimiyati rahbari bo'lishi, mahalliy xalq deputatlari kengashiga rais boshchilik qilishi va hokim xalq deputatlari oldida hisobdor bo'lishi mahalliy boshqaruvdagi eng katta bo'shliq o'rni to'ldirildi. Oldingi yillarda hokim o'zi qaror chiqarardi va uni o'zi amalga oshirardi orada mantiq yo'q edi ya'ni u mahalliy darajada amalga oshirgan ishlari bo'yicha mahalliy darajada hech kimga hisobot bermasdi go'yo. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF–28-sonli Farmoni⁴ bilan mahalliy davlat hokimiyati vakillik va ijro organlarining vazifa va funksiyalariga aniqlik kiritildi, bir birini takrorlovchi funksiyalarni bekor qilish choralari belgilandi.

¹ O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati vakillik va ijroiya organlari o'zaro munosabatlarining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari. Aymuradov Sultan va Omirzakov Rustem/ <https://www.researchgate.net/publication/372110113>

² Omirzakov, R. (2023). CONSTITUTIONAL AND LEGAL GUARANTEES OF ENVIRONMENTAL RIGHTS OF CITIZENS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education, 1(12), 110–111. Retrieved from <http://aidlix.com/index.php/us/article/view/1268>

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023/ <https://lex.uz/docs/-6445145>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 02.02.2024 yildagi PF-28-sonli farmoni/ <https://www.lex.uz/uz/docs/-6789350>

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mahalliy davlat hokimiyati organlari asosiy qonunimizda alohida bir bob qilingan holda keltirilgan va bu MDH va boshqa ittifoqdosh davlatlarning qonunchiligidan farq qilgan holda 21 bobda «Mahalliy davlat hokimiyati asoslari. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari»⁵ deb nomlanishi bilan farq qiladi. Masalan, Belarus Respublikasi Konstitutsiyasida «Mahalliy boshqaruv va o'zini o'zi boshqaruv», Qozog'iston Konstitutsiyasida «Davlatning hududiy tuzilishi va o'zini o'zi boshqaruv», Qirg'iziston, Rossiya va Estoniya Konstitutsiyalarida «Mahalliy boshqaruv», Turkmaniston Konstitutsiyasida «Mahalliy ijro hokimiyati» alohida bobda, «Mahalliy boshqaruv» alohida bobda berilgan⁶. Aynan yuqorida sanab o'tilgan davlatlardan farqli ravishda bizning Konstitutsiyamizda mahalliy davlat hokimiyat organlariga katta e'tibor berilganligini ko'rishimiz mumkin.

Keling mahalliy davlat hokimiyat organlarining tashkiliy va huquqiy asosiga to'xtalib o'tsak. Mahalliy davlat hokimiyat organlari bu mahalliy darajada boshqaruvni amalga oshiruvchi, hududni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik rivojlantirishga, hududda istiqomat qilayotgan aholi turmush darajasini yaxshilashga, mahalli byudjetni shakllantirishga qaratilgan faoliyat bilan shug'ullanuvchi tashkilot va idoralardir. Mahalliy davlat homiyati 2 ga bo'linadi: mahalliy vakillik va mahalliy ijroiya. Mahalliy vakillik organlarini viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari tashkil etadi. Vakillik organlari saylov orqali shakllandi. Xalq deputatlari Kengashlarining vakolatlari muddati — besh yil⁷. Xalq deputatlari kengashi quyidagi vakolatlarga ega: tegishli mahalliy budjetlarni ko'rib chiqish va qabul qilish, ularning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish; hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini tasdiqlash; hokimni lavozimga tasdiqlash, uning faoliyati to'g'risidagi hisobotlarni eshitish; qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirishi mumkin⁸. Mahalliy vakillik organlariga yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq rais boshchilik qiladi va uning vaklat muddati besh yil. Rais ikki martadan ortiq saylanishi mumkin emas. Vakillik organing yig'ilishlarini sessiya tashkil qiladi va zaruratga qarab hududdagi eng muhim masalalar yuzasidan har charakda chaqiriladi. Xalq deputatlari kengashi muhim masalalar yuzasidan komissiya tuziladi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi faoliyatiga tashkiliy, texnikaviy va boshqa jihatlardan xizmat ko'rsatish tegishli xalq deputatlari Kengashi kotibiyati tomonidan ta'minlanadi. Ushbu vakillik organi hududda rivojlantirish va majud muammolarni oldini olish maqsadida hududdagi barcha tashkilot, korxona, jismoniy va yuridik shaxslar uchun bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar chiqaradi. Deputatning

⁵ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023/ <https://lex.uz/docs/-6445145>

⁶ Husanov O.T Konstitutsiyaviy huquq: darslik.. - T.,: Yuridik adabiyotlar publish, 2022. - 400 c.

⁷ O'zbekiston Respublikasining Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida qonuni 02.09.1993 yildagi 913-XII-son/ <https://lex.uz/ru/docs/-112170>

⁸ O'zbekiston Respublikasining Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida qonuni 02.09.1993 yildagi 913-XII-son/ <https://lex.uz/ru/docs/-112170>

daxlsizlik huquqi mavjud bo'ladi⁹. Endilikda mahallik vakillik organlariga hokim emas rais boshchilik qilishi uning suverenitetini ham yuqorida darajaga olib chiqishga va faoliyat samaradorligiga, shuningdek ijro hokimiyati ustidan nazoratni yanada kuchayishiga olib kelmoqda.

Mahalliy ijro etuvchi hokimiyatni hokimlik, mahalliy idora, tashkilot va muassalar tashkil etadi. Tegishli hududdagi ijro etuvchi hokimiyatga viloyat, tuman va shahar hokimi boshchilik qiladi¹⁰. Viloyat va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunga muvofiq tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi. Tuman va shaharlarning hokimlari viloyat, Toshkent shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Tumanga bo'ysunadigan shaharlarning hokimlari tuman hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi¹¹. Viloyat va Toshkent shahar hokimining birinchi o'rinbosari hamda o'rinbosarlari hokim tomonidan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi, bu xususda qabul qilingan qaror tegishli xalq deputatlari Kengashining tasdig'iga kiritiladi. Tuman, shahar hokimining o'rinbosarlari tegishli hokim tomonidan yuqori turuvchi hokim bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi, bu xususda qabul qilingan qaror tuman, shahar xalq deputatlari Kengashining tasdig'iga kiritiladi. Viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlarining vakolatlari quyidagilardan iborat: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarini, Oliy Majlis palatalarining qarorlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari hamda farmoyishlarini, Vazirlar Mahkamasining, yuqori turuvchi hokimlarning va tegishli xalq deputatlari Kengashlarining qarorlarini bajarish; hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatdan rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish; mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish; ushbu Konstitutsiya va qonunlarda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirishdan iboratdir. Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari (hokimliklar) boshqarmalar, bo'limlar va boshqa bo'linmalardan iborat bo'lib, ularning tuzilmasi, ularni tashkil etish tartibi va faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi. Hokim ijro etuvchi hokimiyat tarkibiy bo'linmalarining rahbarlari respublika ijro etuvchi hokimiyatining yuqori turuvchi organlari bilan kelishilgan holda hokim tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi¹². Yuqoidagi o'rnatilgan tartib-qoidalar mahalliy davlat hokimiyatining tshkiliy-huquqiy asosini hamda funkiya va vakolatini tashkil etadi.

Mahalliy davlat hokimiyat organlarining faoliyatini yanada takomillashtirish borasida quyidagi taklif va tavsiyalarni berish mumkin.

⁹ O'zbekiston Respublikasining qonuni Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashi deputatining maqomi to'g'risidagi 02.12.2004 yildagi 706-II-sonli qonuni/ <https://lex.uz/docs/-436950>

¹⁰ O'sha manba/ <https://lex.uz/ru/docs/-112170>

¹¹ O'sha manba./ <https://lex.uz/docs/-6445145>

¹² O'sha manba/ <https://lex.uz/ru/docs/-112170>

Birinchidan, mamlakatimizda 2023 yil 14 dekabrda Adliya vazirligi hamda AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) bilan hamkorlikda “Mahalliy davlat hokimiyati organlarini rivojlantirish va davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish” loyihasi ishga tushirildi¹³. Ushbu loyiha singari mahalliy davlat hokimiyat organlarini nomarkazlashtirish borasidagi islohotlarni jadallashtirish kerak. Ma'muriy islohotlar natijasida mahalliy boshqaruv organlariga bir qancha vakolatlar berildi, lekin boshqaruv hali ham markazlashmoqda, ular faoliyatini amalga oshirishda yuqori tashkilotlarning buyruq va topshiriqlarini kutishi natijasida o'zi mustaqil ish qilishga to'sqinliklar paydo bo'lmoqda. Eng asosiysi mahalliy byudjetni mustaqil boshqarishi kerakligi ham hududdagi rivojlanishga juda katta hissa qoshadi.

Ikkinchidan, hozirgi kunda hokim Prezident tomonidan tayinlanadi. Bu esa hududdagi aholini tushunadigan va qaysi va qanday muammoni biladigan hokim kelishini qiyinlashtiradi va u hududdagi muammoni va aholi kayfiyatini o'rganishi uchun ancha vaqt ketib qolishi mumkin. Shuning uchun, hokimlarni ham saylov yo'li bilan saysalak maqsadga muvofiq bo'lardi.

Uchinchidan, mahalliy kengash deputatlariga Shotlandiya¹⁴ va boshqa mamlakatlarda maosh to'lashadi, natijada mahalliy kengash deputatlari asosiy e'tiborini boshqa ishlar emasda deputatlik faoliyatiga qaratiladi. Bizning mamlakatimizda mahalliy kengashdagi deputatlarga maosh to'lanmaydi va natijada deputat moddiy tomonlama manfaatdor bo'lmaganligi sababli asosiy e'tiborini boshqa ishlarga qaratadi. Natijada mahalliy vakillik organlarining samaradorligi juda past ko'rsatgichlarni tashkil qilmoqda.

To'rtinchidan, endilikda mahalliy vakillik organlarining jro organlari ustidan nazoratni kuchatirish kerak. Mahalliy ijro organlari qilingan ishlar yuzasidan vaillik organiga hisobot berib borishi, topshiriqlari hech qanday kam-ko'zsiz bajarishi shart. Vakillik organi ham yig'ilishiga kelgan deputat dam olish uchun kelmasligi kerak, daxldorlik hissini his qilgan holda faol bo'lib hududdagi aholi ishonchini ro'yobga chiqarish bo'yicha bor kuch-g'ayratini ishga solishi darkor.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan islohotlar natijasida tizimdagi bir qancha muammolar bartaraf etildi, qaytaruvchi funksiyalar tugatildi, boshqaruv optimallashtirildi. Lekin faqatgina prezidentimiz qayg'urmanlari bilan boshqalar qayg'urmasa, chiqarilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar faqtgina qog'ozda qolib ijrosi ta'minlamasa ko'zlanagan maqsadga erishish mushkul holatda qoladi. Shuning uchun hammamiz birgalikda harakaqilishimiz darkor, sababi vatan bizlarniki.

¹³ <https://kun.uz/news/2023/12/14/mahalliy-hokimiyat-organlarini-rivojlantirish-boyicha-yangi-loyiha-ishga-tushirilmoqda>

¹⁴ <https://www.gov.scot/policies/local-government/councillors-roles-conduct-pay/>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023/ <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida qonuni 02.09.1993 yildagi 913-XII-son/ <https://lex.uz/ru/docs/-112170>
3. O'zbekiston Respublikasining qonuni Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashi deputatining maqomi to'g'risidagi 02.12.2004 yildagi 706-II-sonli qonuni/ <https://lex.uz/docs/-436950>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 02.02.2024 yildagi PF-28-sonli farmoni/ <https://www.lex.uz/uz/docs/-6789350>
5. Husanov O.T Konstitutsiyaviy huquq: darslik.. - T.,: Yuridik adabiyotlar publish, 2022. - 400 c.
6. Omirzakov, R. (2023). CONSTITUTIONAL AND LEGAL GUARANTEES OF ENVIRONMENTAL RIGHTS OF CITIZENS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education, 1(12), 110–111. Retrieved from <http://aidlix.com/index.php/us/article/view/1268>
7. O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati vakillik va ijroiya organlari o'zaro munosabatlarining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari.Aymuradov Sultan va Omirzakov Rustem/ https://www.researchgate.net/publication/372110113_
8. <https://kun.uz/news/2023/12/14/mahalliy-hokimiyat-organlarini-rivojlantirish-boyicha-yangi-loyiha-ishga-tushirilmoqda>
9. <https://www.gov.scot/policies/local-government/councillors-roles-conduct-pay/>